

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA TIZIMI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Yurisprudensiya - Biznes huquqi yo'nalishi
I-kurs talabasi*

Ma'murjonova Sevinch Bekmurod qizi
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: *Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasining Prokura-turasining tizimiga qaratilgan. Ya;ni, O'zbekiston Respublikasining Prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining asosiy vazifalari, Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari,*

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari, Prokuratura organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari, Fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, Prokuratura organlarining tizimi, Ozbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi haqida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar; prokuratura, qonun, fuqaro, jamiyat, qaror, ariza, taklif, shikoyat, davlat, nazorat, vazirliliklar, ijro etish, jinoyat.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashgan tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalgalashadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi, shuningdek ularning vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalgalashadi;

vazirliliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi yuzasidan nazorat qilish;

fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

tezkor - qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalgalashadi organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan

nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir. Prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdar shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish ta'qilqanadi. Prokuratura organlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar. Prokuror fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi. Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shukoyat qilinishi mumkin.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokururaturasi;

viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;

tumanlar va shaharlar prokuraturalari;

viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururaturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokururaturasi;

tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinnbosariga, o'rinnbosarlarga ega bo'ladi.

XULOSA

Prokuratura tizimi O'zbekistonda asosiy tizim hisoblanadi, ya'ni, qonunlarni mamlakatning har bir hududida, baravariga hamma amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Mamlakatda qonunlarning aniq va bir xilda amal qilinishi, ayniqsa, xalq mnfaatlariga va jamiyatning yanada yuksalishiga, fuqarolarning huquq va erkinliklarining va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa manfaatlarining amal qilinishini ta'minlaydi. Prokuratura idoralarining faoliyati qonunning ustuvorligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq tartibotni mustahkamlashga, davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumining siyosiy va ijtimoiy tizimlarini, milliy guruhlar va huquqiy tizimlarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Prokuratura to'g'risidagi Qonuni, 29.08.2001-yildagi 257-II-son; Hujjat 02.09 2022 amaldagi versiya;
2. O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasining rasmiy sayti; prokuratura.uz sayti;
3. Advice.uz rasmiy sayti;
4. Konstitutsiya "O'zbekiston" Toshkent-2023